

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING SIYOSIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI

Rahmatova Maftuna Shovqiddinovna

Samarqand shahar 19-umumiy o'rtata'lim maktabi

Tarix fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22672549>

Annotatsiya. Ushbu tezisda XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy qarashlari va jamoatchilik faoliyati tahlil qilinadi. Unda Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o'rni, milliy ong va siyosiy tafakkurni shakllantirishga qo'shgan hissasi, ta'lim, matbuot va teatr orqali jamiyatni isloh qilishga qaratilgan faoliyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudi, jadidchilik, Turkiston, siyosiy jarayonlar, milliy uyg'onish, siyosiy tafakkur, milliy davlatchilik, ma'rifatparvarlik, matbuot, ta'lim, islohot, siyosiy qarashlar.

THE SIGNIFICANCE OF MAHMUDKHODJA BEHBUDIY IN POLITICAL PROCESSES

Abstract. This thesis analyzes the political views and public activities of Mahmudkhodja Behbudi, who actively participated in the socio-political life of Turkestan at the beginning of the 20th century. It examines Behbudi's role in the Jadid movement, his contribution to the development of national consciousness and political thought, and his efforts to reform society through education, the press, and theatre.

Keywords: Mahmudkhodja Behbudi, Jadidism, Turkestan, political processes, national awakening, political thought, national statehood, enlightenment, press, education, reform, political views.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan muammolar mahalliy ziyolilarni jamiyat taraqqiyotining yangi yo'llarini izlashga undadi.

Ayniqsa, xalqning savodsizligi, eski ta'lim tizimining zamon talablariga javob bermasligi, milliy manfaatlarining yetarli darajada himoya qilinmasligi va siyosiy huquqlarning cheklanganligi Turkiston ziyolilarini faol harakatga keltirdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda shakllangan jadidchilik harakati jamiyatni ma'rifat asosida yangilash, xalqning milliy o'zligini anglashini kuchaytirish va zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Mazkur harakatning yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudi bo'lib, uning faoliyati Turkiston tarixidagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu jihatdan Behbudiyning merosini o'rganish Turkistonda zamonaviy siyosiy tafakkurning shakllanish jarayonlarini anglashda alohida ahamiyatga ega.

Behbudiyning siyosiy jarayonlardagi ahamiyatini belgilovchi muhim jihatlardan biri uning milliy matbuotdagi faoliyatidir. U matbuotni jamiyatdagi muammolarni ochiq muhokama qilish, xalqni siyosiy va ijtimoiy masalalardan xabardor qilish hamda milliy fikrni shakllantirishning samarali vositasi sifatida baholagan.

Behbudiy tomonidan tashkil etilgan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu nashrlarda ta’lim, madaniyat, milliy til, tarix, jamiyat boshqaruvi, iqtisodiy hayot va siyosiy masalalarga oid maqolalar muntazam e’lon qilindi. Natijada matbuot xalq bilan ziyolilar o’rtasidagi muloqot maydoniga aylandi.

XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqiroz sabab bo’ladi. “XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, Turkiston o’lkasida ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga ko’tariladi. Bu davrda mintaqaga turli g’oyaviy oqimlar kirib kelishi natijasida xalqning siyosiy ongi o’sa boshladi”. Mustamlakachilik – uzluksiz zo’ravonlik, ta’qib va nazorat (senzura), zulm va haqsizlik muhitida kechgan mazkur faoliyatda huquq masalasi dolzarb bo’lgan. Mahmudxo’ja Behbudiy 1907 yilda ishlab chiqqan “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi mintaq xalqlari manfaatlarining ifodasi bo’lib, unda davlat ishlarini turkiy tilda yuritish, milliy idoralar tashkil etish va unga turkiy millatga mansub ziyolilardan a’zolar saylash qat’iy deya ma’lumot bergan edi. Rossiya imperiyasi tarkibidagi mustamlaka xalqlar nomidan Davlat dumasi o’z bilganicha ish tutmasligi, har bir mamlakatning tabiiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlaridan kelib chiqib qonunlar chiqarilishi kerakligi haqida yozilgan bandlari ham shakllangan edi. “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasining birinchi bo’limi “Davlat dumasi xususida” bo’lib, uning tarkibiga Turkiston aholisi soniga nisbatan vakillar saylanishi kerakligi va ular o’z xalqlari nomidan faoliyat ko’rsatishi lozimligini aytgan. “Bundan tashqari loyihada “Turkiston idorayi ruhoniya va doxiliya idorasi”ni tuzish, uning tarkibiga turkistonlik savodli, shariat va zamondan xabardor kishilarni (idora raisi va a’zolari) 5 yil muddatga saylash, shuningdek, ushbu vakillik organi Toshkent shahrida joylashishi kerakligi ham aytib o’tilgan edi” Qozilar prokuratura idorasiga emas, Turkiston idorayi ruhoniya va doxiliya idorasiga bo’ysunishi hamda doimiy ravishda uning nazorati ostida faoliyat olib borishi haqida qat’iy belgilab qo’yilgan edi.

Xulosa o’rnida, uning siyosiy qarashlarida milliy o’zlik, milliy manfaat, zamonaviy ta’lim, siyosiy huquqlar, mahalliy boshqaruv, jamoatchilik faolligi va milliy davlatchilik masalalari o’zaro bog’liqlik holda namoyon bo’ladi. Behbudiy xalqning kelajagini uning siyosiy faolligi va ma’rifiy darajasi bilan bog’lagan. Shu bois u maktab, matbuot va teatr kabi vositalardan foydalanib, jamiyatni yangilashga intildi.

Shunday qilib, Mahmudxo’ja Behbudiy faoliyati Turkiston tarixida ma’rifat va siyosatning o’zaro bog’liqligini namoyon etuvchi muhim tarixiy hodisa hisoblanadi. Behbudiy tomonidan ilgari surilgan ilm-ma’rifat, milliy o’zlik, jamiyat oldidagi mas’uliyat va taraqqiyot g’oyalari uning tarixiy shaxs sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, Mahmudxo’ja Behbudiy nafaqat o’z davrining ma’rifatparvari, balki Turkistonda zamonaviy siyosiy tafakkur shakllanishiga katta hissa qo’shgan milliy ziyoli va jamoat arbobi sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
2. Qosimov, B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
3. Karimov, N. Mahmudxo’ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.